



2023



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал № 1

МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИУ



Илимий-методикалық журнал

2023

1-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хэм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гууалық берилген.*

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПНИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ

Нағмет АЙЫМБЕТОВ

Байрамбай ОТЕМУРАТОВ

Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ

Алишер АЛЛАМУРАТОВ

Дилшодхўжа АЙТБАЕВ

Тўлқин АЛЛАЁРОВ

Умида БАҲАДИРОВА

Фархад БАБАШЕВ

Асқар ДЖУМАШЕВ

Гүлнара ЖУМАШЕВА

Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ

Умида ИБРАГИМОВА

Меруерт ПАЗЫЛОВА

Асқарбай НИЯЗОВ

Сабит НУРЖАНОВ

Уролбой МИРСАНОВ

Бахтиёр РАХИМОВ

Арзы ПАЗЫЛОВ

Барлықбай ПРЕНОВ

Қақхор ТУРСУНОВ

Тажибай УТЕБАЕВ

Амангелди КАМАЛОВ

Ризамат ШОДИЕВ

Зафар ЧОРШАНБИЕВ

Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ

Гулрухсор ЭРГАШЕВА



МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ АДЕБИЯТ

Курганов А. М. Инглиз ва ўзбек тиллари ҳарбий терминларининг лингвомаданий бирликларда ифодаланиши	6
Маллаева О. М. Умумий ўрта таълим мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг индивидуал касбий ривожланиш траекторияси масалалари	18
Рузметова Н. В. Роль и значение английского языка в профессиональной ориентации будущих правоведов	24

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Bazarbaeva M. A. Baslawish klaslarda oqiw-tarbiyaliq jumislar processinde informacion-kommunikasiya texnologiyalarinan paydalaniv	32
Хаджибеков С. Н. Таълим кластери субъектлари интеграциясини лойиҳалаш механизми	37
Убайдова В. Э. Ўзбекистонда экспортбоп энгил саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда Накшбандия таълимотини қўллашда суҳбат методидан фойдаланиш	41
Хаджибеков С. Н. Педагогик тажриба-синов ишларининг сифат ва самарадорлиги	47
Qurbonova Z. M. Talabalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishda mahmud az-zamaxshariy ta'limotidan foydalanish	51
Turgunova A. T. Avlodlararo munosabatlar tizimida gerontopedagogika	59
Salieva P. A. Malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda rivojlantiruvchi ta'lim o'rni	67
Jumanov A. A. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash holati va muammolari	72
Ergashev B. V., Mirsaidov I. T. Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari	77
Файзуллаев Р. Х., Сайфиева Ю. Ў. Олий таълим муассасалари талабалари фанлардан мустақил билим олиш, фикрлаш, кўникма ва малакаларини шакллантириш	85
Чориев Р., Баратов М. Касб таълими мутахассисларини дуал тизими асосида касбий фаолиятга тайёрлаш	91
Эргашева Г. Р. Мутахассиснинг касбий мослашишига таъсир кўрсатувчи омиллар	97
Ходжанов А. Р. Талабаларни тарбиялашда педагогик фаолиятга қўйиладиган замонавий талаблар	102
Ярова С. Б. Талабаларнинг ижтимоий компетентлигини такомиллаштиришнинг назарий асослари	111
Очилов А. Х. Таълим инновацияси	118
Болиев У. И. Олий ўқув юртида талабаларни мусиқа таълими воситасида маънавий-ахлоқий тарбиялашга қўйиладиган талаблар	122
Shodiyev H. R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanini raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish	126
Элмурзаева Н. Х. Интеграциялашган таълимнинг асосий вазифаси	132
Ahadov M. Sh. Kimyoda ekstern ta'limni joriy etish metodikasi	136
Samiyeva Sh. X. Oliy ta'lim tizimida kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilarning fikrlash tipologiyasini rivojlantirish	143
Fayzullaev R. X. Inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalarini oshirishda resurs pedagogning o'rni va roli	154
Muqumova D. I. Ta'lim jarayonidagi pedagogik ixtiloflar, ularning sabablari va bartaraf etish choralari	160
Исмаилова З. К. Бўлажак профессионал таълим ўқитувчиларининг мобиллилик қобилиятини ривожлантириш	168



Мустафоева Д. А., Маматалиева М. И. Инновацион таълим жараёнларини ташкиллаштиришнинг касбий-ижтимоий зарурати	178
Садиқова Ф. М. Компетенциявий ёндашув асосида талабалар мустақил ишини ташкил этиш	183
Жўраева Г. А. Профессional таълим йўналиши ўқувчи-талабаларида касбий компетенцияларни ривожлантириш	189
Мусаева Г. У. Ёшларни касбий фаолиятга йўналтириш самарадорлигини таъминлаш	195
Olimova D. M. O'quvchilarni milliy kashtachilik asosida estetik tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasi metodik muammo sifatida	200
Abduxamidov S. M. Ta'lim metodlari haqida umumiy ma'lumot	207
Abduxamidov S. M. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarining mazmun va mohiyati	210
Allayorova S. B. Ta'lim samaradorligini oshirishda integratsiya sharoitining didaktik imkoniyatlari	213
Allayorova S. B. Ta'lim klasterida pedagogik innovatsiyalar tushunchasi	219
Jamolddinova S. N. O'qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati	224
Jamoldinova S. N. Kommunikativ qobiliyat - ta'lim-tarbiya jarayonidagi konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida	229
Элмурзаева Н. Х., Саидов З.Х., Абдуллаева М.Х., Маруфхонова С.У. Таълим тизимининг инновациялар жараёнлари	236
Мустафоева Д. Факторы развития компетентности персонала профессиональных образовательных учреждений	242
Элмурзаева Н. Х., Саидов З. Х. Абдуллаева М. Х. Маруфхонова С. У. Методика стратегического планирования	248
Шахмурова Г. А., Халитова Р. А. Формирование генетической грамотности у студентов биологического направления	253
Элмурзаева Н. Х. Профессиональное саморазвитие педагога	
Zaripova D. A. Training students on the basis of smart technologies in the development of innovation activities	262
Khamrayeva G. R. Model of development of education quality assessment skills of vocational education students	270

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИҲ, ФИЛОСОФИЯ

Норинов Ф. Қ. Геология фанининг тарихийлик нуктаи назаридан тавсифий таҳлили	278
---	-----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Jumamuratov A. J., Kalilayev F. K. Mekteplerde elementar bóleksheler fizikasi bólimin o'qitwidi jetilistiriw jollari (Mektep fizika páni muğallimlerine metodikalıq járdem)	286
Джумабаев К. Н. Умумий ўрта таълим мактабларида python дастурлаш тилини ўқитиш муаммолари	293
Бекнозарова З. Ф. Физика фанини ўқитишда кейс технологиясини ташкил этиш	299
Бекнозарова З. Ф. Олий таълимда физика фани амалиёт дарсларини педагогик технологиялар асосида олиб бориш	305
Мавлонов Р. А. Курилиш йўналишлари талабаларига чизма геометрия фанини ўқитишда компетентли ёндашув	309
Djumaev M. Matematika o'qitishda milliy o'quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o'ziga xos xususiyatlari	314



БАСЛАҒЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Saidova N. R. Boshlang'ich sinf darslarida axborot texnologiyalari vositalarining imkoniyatlari	324
Саламова Ф. Кар ва заиф эшитувчи болалар мактабларида ўқувчиларнинг талаффузини шакллантириш ва эшитиш идрокини ривожлантириш бўйича коррекцион машгулотлар мазмуни ва уларнинг ташкил этилиши	329
Aminov A. Sh. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarish	334
Hazratqulova S. R. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish	339
Djumayeva D. I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining "Tarbiya" darslarida kreativ fikrlashlarini shakllantirishning usul va vositalariga nazariy yondashuv	345
Хушбоқов Б. Х. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини креатив компетенциясини шакллантиришнинг назарий асослари	350
Eshchanova G. O., Madaminova Sh. Sh. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida nasriy asarlarni o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv yo'llari (3-4- sinflar misolida)	357

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХЭМ СПОРТ

Jarilkarov U., Ernazarov R. Qaraqalpaqstan respublikasinda grek-rim gúresshisiniń payda bolıwı hám rawajlanıw tariyxı	364
Турсунов А. А. О'zbekistonda sog'lom jamiyatini yaratishda sog'lom turmush tarzining o'rni	372
Идрисов М. И., Орипов О. О., Қадамов С. Х., Матякубова З. Б. Болаларни спортнинг оммавий турларига жалб этишнинг ташкилий педагогик шарт-шаронглари	376
Худайбердиева Н. А., Мамадалиев С. А., Махмашукуров Ш. Х. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида педагогик кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш хусусида	385
Turobov X. N., Kuziyev A. A., Soliyev S. Sh. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, sport tadbirlarining shakllari va turlari	394
Хайдарова М. И. Махсус атамаларнинг жисмоний тарбия ва спортда илмий – тадқиқот ишларини ташкил этишдаги хусусиятлари	400
Xasanov A. T., Sultonov B. A., Abdumurodov F. A. Малакали боксчиларнинг техник-тактик тайёргарлигини ошириш	405
Халиков А. А. Формирования профессиональной компетентности студентов физической культуры и спорта	410
Саидова Ш. Д., Ниязова О. Ю., Саидов Р. Т. Бадминтон одна из форм укрепления зоровья детей дошкольного возраста	414



KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Aminov A. Sh.

BuxDU tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasida o`qituvchisi

Tayanch soʻzlar: kredit-modul tizimi, taʼlim dasturlari, modul texnologiyasi, platforma, mustaqil ish, elektron taʼlim.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, образовательные программы, модульные технологии, платформа, самостоятельная работа, электронное обучение.

Key words: credit-module system, educational programs, module technology, platform, independent work, electron education.

Yosh kadrlarni zamonga mos ravishda taʼlim olishi va mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirib borish hamda ularning ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarini yetishtirish oʻquv dargohlarida yoʻlga qoʻyilgan taʼlim berish jarayoni bilan chambarchas bogʻliq hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy taʼlim tizimida zamonaviy oʻqitish boʻyicha samarali ishlar joriy etib kelinmoqda. Jumladan 2019-yilning 8-oktabridagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5847-sonli farmonida oliy taʼlim muassasalarida oʻquv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga oʻtkazish masalalari vazifa qilib qoʻyildi. Oliy taʼlim muassasalarida oʻquv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi 824-sonli qaroriga asosan nizomi ishlab chiqildi. Unga koʻra oliy taʼlim muassasalarida oʻquv jarayoniga Kredit toʻplash va koʻchirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida taʼlimning kredit-modul tizimi va taʼlim dasturi tuzilmasini bosqichma-bosqich joriy etish belgilab qoʻyildi.

Kredit – modul tizimining ilk tarixiga nazar solsak, XIX asr ikkinchi yarmida AQSHda birinchilardan joriy etilib, keyinchalik dunyo davlatlariga va shu bilan birga Yevropa davlatlarning oliy taʼlim muassasalarida shakllanib kelgan. Mazkur tizimni joriy etilishidan maqsad AQSHning universitet oʻquv dasturlarida bu kabi amaliyotda ahamiyatini yoqotgan fanlar koʻlami anchani



tashkil qilganligi uchun oddiy fuqarolar orasida universitetlarga qiziqish kamayganligi uchun joriy qilingan.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir.

Kredit-modul tizimining hozirgi zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli hisoblanadi.

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

- talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash;
- talabalar bilimini reyting asosida baholashdir.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibining 4-bobida O'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta'lim sifatini ta'minlashda Kredit-modul tizimi 1 kredit o'rtacha 25—30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga bo'linishi ko'rsatilgan. Shunday ekan, kredit - modul tizimi dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir.

Mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltiradi. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan deb aytish mumkin. Kredit – modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi.

Kredit – modul tizimiga ko'ra o'quv mashg'ulotlari talabaga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari bo'lib, talabaning mustaqil o'qib o'rganishiga asoslanadi.

Oliy ta'lim talabalarining mustaqil ta'lim doir vazifalarini ikki ajraladi:

- auditoriyada – bu bevosita fan o'qituvchisi tomonidan talabalar bilan bajariladigan mustaqil ishlar;
- auditoriyadan tashqari - fan o'qituvchi tomonidan talabaga variant topshiriqlari va mavzular berilgan, lekin uning ishtirokisiz bajariladigan individual mustaqil ishlardir. Bu kabi auditoriya va auditoriyadan tashqari



mustaqil ishlari talabaga berish va uning mazmuni o'quv fani ishchi dasturida ko'rsatilgan, tavsiya etilayotgan o'quv topshiriqlari asosida belgilanadi.

Mustaqil ishni tashkil etish, uni boshqarish har bir o'qituvchining mas'uliyatli va murakkab faoliyat turi hisoblanadi. O'rta maktab o'quvchilarning chuqur va doimiy bilimlari, ularning faoliyati va mustaqilligini shaxsiyat xususiyatlari sifatida shakllantirish, ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kurash vositasidir. Misol uchun maktab ostonasini birinchi marta kesib o'tgan bola o'z faoliyatining maqsadini mustaqil ravishda belgilay olmaydi, o'z harakatlarini rejalashtira olmaydi, ularni amalga oshirishni tartibga soladi, natijani belgilangan maqsad bilan bog'laydi.

Kredit-modul tizimi oliy ta'lim talabalari auditoriyada ma'ruza, amaliyot va laboratoriyada ajratilgan soat miqdori 40-50% tashkil topib undan olgan bilim ko'nikmalariga tayanib, alohida o'zi mustaqil ravishda fan o'qituvchisi tomonidan berilgan mustaqil vazifalarini 50-60% o'zi bajarib o'zlashtirishi lozim bo'ladi. Bu uchun talaba auditoriyada ma'ruza tinglab o'qituvchi tomonidan bayon etilganlarni qayt etadi. Tinglovchi talabalardan paydo bo'lgan savollar, savollarga javob variantlari, faktlarni yozish va har xil belgilarni qo'yishadi.

Hozirgi texnika va texnologiyalar taraqqiy etgan bir zamonda talabalarning mustaqil ish vazifalari qiziqarli masalalar, krossvordlar, didaktik o'yinli texnologiyalar va video taqdimotlar tayyorlash hamda o'qituvchi yordamida tahlil qilishdan iborat bo'lishi lozim.

Talaba auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim vazifalarini bajarish jarayonida quyidagi manbalardan foydalanishi kerak bo'ladi:

- darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik adabiyotlar, ma'lumotlar, yo'riqnomalar va hokazolarni
- elektron ta'lim, internet resurslardan foydalanish;
- mustaqil ta'lim vazifasiga doir video qo'llanmalardan foydalanish;

Bundan tashqari talaba nazorat ishlariga tayyorlanish jarayoni ham mustaqil ta'limning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Talaba fanni to'liq o'zlashtirgandan so'ngina unga bir butunlikdagi kredit yig'iladi.

Bugungi kunda modulli texnologiya joriy etish bo'yicha fan manbalari tizimlashtirish maqsadida masofaviy ta'lim texnologiyasi an'anaviy ta'lim tizimini amalga oshirishda duch kelingan muammolarni hal etish yoki shart-sharoit uni taqozo qilgan holda qo'llaniladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Kredit – modul tizimining modul texnologiyasi oliy o'quv yurtlarida moodle.uz, hemis.uz, uniwork.uz va boshqa platformalar joriy etilgan bo'lib,



unda ma'ruza va amaliy ishlanma hamda mustaqil ta'lim vazifalari undagi har bir kontentlari fan o'qituvchisi tomonidan modullarga ajratib joylashtirishadi. Bundan tashqari mazkur platformada bulutli texnologiyalardan foydalanib yaratilgan fan mavzularidan video va audio taqdimotlarning havolasini joylashtirib undan talabalar maqsadli foydalanishi mumkin. Ushbu platformalarda o'qituvchi tomonidan har bir mustaqil ishlarning vaqtini chegaralab qo'yib talabalarni nazoratga olinishi mumkin.

Bunday o'quv platformalar Oliy ta'limda joriy etilgan bo'lib, fan o'qituvchisi tomonidan resurs joylashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanib kelinmoqda. Lekin o'qituvchiga har bir semestr taqsimotida turli fanlar ko'pligi sabab ulgurmay qolishlari mumkin. O'qituvchi bu vaziyatdan chiqish maqsadida bitta auditoriya mashg'ulotidan keyin platformada har bir mashg'ulotlarni oldindan joylashtirib borish tavsiya etiladi.

Oliy ta'limning talabalari ushbu platformada ixtiyoriy vaqtda kirib, modul kontentlarni ko'rishi mavzularga daxldor bo'lgan mustaqil ta'lim ishlarini olib bajarishi hamda fandan kredit olishi uchun harakatini boshlashi tezda vazifalarni bajarib borishi talabani zimmasigadir.

Yuqorida aytilgan ta'lim platformasidan masofaviy ta'lim sifatida amalga oshirish jarayonining asosini mustaqil ta'lim tashkil qilganligi uchun ham talabalarning fikr doirasi va ijodiy tafakkuri rivojlanib boradi. Masofaviy ta'limda o'quv jarayonining muddati qat'iy belgilanmaydi. Nazorat ishlarini bajarish va javob yo'llashni talaba mustaqil va o'ziga qulay vaqtda bajaradi. Ushbu holat masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Lekin ta'limni masofali o'qitishda o'qituvchi va talaba ham ikki marta ma'suliyatni sezishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi tomonidan mavzuga doir masofaviy vebinarlar va onlayn master klaslar tashkil etishi zarur hisoblanadi. Talabalar tomonidan esa onlayn vebinarlarga o'z vaqtida kirishi va unga berilgan vazifalarni platformada mustaqil bajarib ketishi zarur hisoblanadi.

Talabalar bajaradigan mustaqil ishlarini baholash maqsadida quyidagi prinsipga amal qilish lozim bo'ladi. Beriladigan mustaqil vazifalarni oqituvchi tomonidan oddiy va murakkab prinsipiga amal qilgan holda vazifaning murakkablik darajasi qarab 100 ballik sistemasiga taqsimlanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Talabalar har bir bajargan mustaqil ish vazifalarni to'liq baholash mezonida ko'rsatilishi lozim. Bunday hollatda talaba bajarayotgan mustaqil vazifalarning mozoniga qarab sifatli bajarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda auditoriyadan tashqari talabalarning mustaqil ta'lim vazifalarini tashkillashtirishda fan o'qituvchisi ma'suliyat katta hisoblanib, fanning barcha mavzulari va unga daxldor mustaqil vazifalarning



ma'lumotlarini tizimlashtirish va uni boshqarish dolzarb masala sanaladi. Auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim vazifalariga tegishli bo'lgan barcha kontentlarni joylashtirgan holda har bir mustaqil vazifalarning murakkablik darajasiga qarab baholash mezonini berishi undan talaba unumli foydalanib vazifani bajarilishi kerak. Platformada fan o'qituvchisining har bir talabani boshqarishi, talabanning bilim, ko'nikma va malakasini bilgan holda uni to'g'ri hamda xolisona baholay oladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 26-bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31. 12. 2020 yildagi 24-sonli qarori. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish. 10-bet.

3. Nosirova, D., & Jalilov, S. (2021). Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy shakllari. *Журнал математики и информатики*, 1(3).

Internet resurslari
lex.uz

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kredit-modul tizimiga talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarish bo'yicha quyidagicha fikr yuritilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, kredit-modul tizimining tarixi va tushunchalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'qitishning kredit-modul tizimiga o'tish xorijiy tajribalarni o'rgangan holda bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Kredit-modul tizimida talabalar kredit yig'ib borishi bilan bog'liq muammolar, modul texnologiyasi bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini pedagogik dastur platformalarda amalga oshirish, uni boshqarish kabi fikr va mulohazalar bayon qilingan. Bundan tashqari talabalar mustaqil ishlarini baholash mezonlari bo'yicha atroficha fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается организация и управление самостоятельной работой студентов по кредитно-модульной системе следующим образом. Представлены сведения о постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан, истории кредитно-модульной системы и концепциях. Переход на кредитно-модульную систему современного обучения в системе высшего образования осуществляется поэтапно, с изучением зарубежного опыта. В кредитно-модульной системе изложены такие отзывы, как проблемы со сбором студенческого кредита, реализация самостоятельной работы студентов по модульной технологии на педагогических программных платформах, ее администрирование. Кроме того, подробно рассмотрены критерии оценки самостоятельной работы учащихся.

SUMMARY

This article discusses the organization and management of students' independent work on the credit-modular system as follows. The information about the resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, the history of the credit-modular system and concepts are presented. The transition to a credit-modular system of modern education in the higher education system is carried out in stages, with the study of foreign experience. The credit-modular system contains such reviews as problems with collecting student loans, the implementation of students' independent work on modular technology on pedagogical software platforms, and its administration. In addition, the criteria for evaluating students' independent work are considered in detail.

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**

№ 1

Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Н. Абдукаримов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев

ISSN 2181-7138

Мэнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналга келген мақалаларга жууап қайтарылмайды, журналда жәрияланган мақалалардан алынган үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилиуи шәрт. Журналга 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледу. Мақалада келтирилген мағлыұматларга автор жууапкер.

Оригинал-макеттен басыуға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №